



## GOSPITAL PEDAGOGIKA-INKLYUZIV TA'LIMNING AJRALMAS

### QISMI SIFATIDA

*Eshmurodova Dildor Normuratovna*

*Pedagogika kafedrasining o'qituvchisi. Ilmiy rahbar.*

*Mamadiyeva Marjona Baxtiyor qizi*

*SHahrisabz Davlat Pedagogika instituti "Pedagogika" yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada gospital pedagogikaning mazmuni, maqsadi, vazifalari shuningdek inklyuziv ta'larning maqsadi, vazifasi hamda bir biri bilan bog'liqligi, jamiyat uchun muhimligi keltirib o'tilgan. Gospital pedagogika inson salomatligi bilan bog'liq muammolar sababli uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va shakllantirish jarayonini tashkil etishning muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi.

**Kalit so'zlar:** Gospital pedagogika, uning maqsadi, vazifalari, inklyuziv ta'lim hamda maqsad va vazifalari, inklyuziv ta'larning tamoyillari, gospital pedagogika va inklyuziv ta'larning bog'liqligi, farqlari.

**Аннотация:** В этой статье перечислены содержание, цель, задачи госпитальной педагогики, а также цель, задача и взаимосвязь инклюзивного образования, его важность для общества. Хосписная педагогика признается важным направлением организации процесса обучения, воспитания и формирования детей, нуждающихся в длительном лечении в связи с проблемами со здоровьем человека.

**Ключевые слова:** Госпитальная педагогика, ее цель, задачи, цели и задачи инклюзивного образования, принципы инклюзивного образования, взаимосвязь, различия госпитальной педагогики и инклюзивного образования.

Gospital pedagogika — bu sog'liqni saqlash muassasalarida, ya'ni shifoxonalarda, sanatoriyalarda hamda reabilitatsiya markazlarida davolanayotgan



bolalar va o'smirlar bilan pedagogik ish olib borishga ixtisoslashgan pedagogika sohasi hisoblanadi. U maxsus pedagogikaning yo'nalishlaridan biri. Gospital pedagogikaning asosiy maqsadlari quyidagilar: Ta'limi vazifa: Kasalxona sharoitida bo'lgan bolalarga o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim berish, ularning bilim olish jarayonini uzlusiz davom ettirish. Tarbiyaviy vazifa: Bolalarda ijobjiy qarash, umid va motivatsiyani shakllantirish, ularni ruhan qo'llab-quvvatlash, mehr-oqibat muhitini yaratish. Ijtimoiylashtirish vazifasi: Bolani jamiyatdan ajralib qolishdan saqlash, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga tayyorlash. Psixologik-emosional qo'llab-quvvatlash. Kasallik tufayli yuzaga kelgan stress, qo'rquv, tushkunlik holatlarini yengib o'tishga yordam berish. Reabilitatsion vazifa: ta'lim orqali bolaning sog'lig'i tiklanishiga va normal hayotga qaytishiga hissa qo'shish. Individual yondashuvni amalga oshirish: har bir bolaning sog'lig'i, rivojlanish darajasi va psixologik holatidan kelib chiqib, maxsus yondashuv asosida ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish. Bu vazifalar orqali gospital pedagogika nafaqat ta'lim, balki bolalarning umuman hayotiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks yondashuvni ta'minlaydi. Shuningdek sog'liq tufayli uzoq muddat mактабдан узоқда олган болаларни та'limdan uzib qo'ymaslik; Bolaning psixologik, ruhiy holatini yengillashtirish, davolanishga ijobjiy munosabatni shakllantirish; Ijtimoiylashuv va shaxsiy rivojlanishni shakllantirish, qo'llab-quvvatlash. Oilasi, tibbiyat xodimlari, psixologlar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda faoliyat olib borish. Gospital pedagogining faoliyatiga quyidagilar kiradi: O'quv dasturlarini moslashtirish; Moslashuvchan o'quv shakllari (masalan, qisqa darslar, qiziqarli interfaol o'yinlar); Emotsional-ruhiy yordam ko'rsatish; Bolaning sog'lig'i, yoshi, ruhiyati va holatiga qarab yondashuv. Bu soha egasi nafaqat pedagogik, balki tibbiy-psixologik bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zida shakllantirgan bo'lishi kerak. Gospital pedagogika orqali davolanish jarayonida bola o'zini jamiyatning bir bo'lagi sifatida his qiladi va ijtimoiy izolyatsiyadan saqlanadi. Gospital pedagogikaning xususiyatlariga quyidagilarni keltirishimiz mumkin: Bolalarning sog'lig'i yomonlashgan holatda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Davolanish vaqtida ularning o'qish jarayonidan ortda qolmasligini ta'minlaydi. Psixologik, pedagogik va



ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ham o'z ichiga oladi. Har bir bolaning individual ehtiyoj va qiziqishlariga moslashtirilgan darslar olib boriladi. Tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar va psixologlar o'zaro hamkorlikda, kelishilgan holda ishlaydi.

Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, inclusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Ushbu atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan birgalikda qo'shib o'qitish jarayonini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayoni. Hamda inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi turli muammoli vaziyatlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ta'minlovchi ta'lim tizimi hisoblanadi.

Shuningdek inklyuziv ta'limning tamoyillari ham mavjud bo'lib bular quyidagilardan iborat: Jumladan, 1. Inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog'liq emasligi prinsipi; 2. Har bir shaxsning his qilish va o'ylash layoqatiga egaligi prinsipi; 3. Har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi; 4. Har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi; 5. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi; 6. Har bir o'quvchining o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlovi va do'stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi; 7. Turli-tumanlik o'quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta'minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda qulay moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat: rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni mustasno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni



ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish; jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish; ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini; barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish; o'quvchilarning har tomonlama shakllanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy ko'nikma va qobiliyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya vositalarini qo'llashda ularning salohiyatini oshirish, ularni psixologik pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash. Inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar sog'lom bolalar bilan birga bir mакtabda, sinfda o'qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga kelganidan boshlab alohida e'tibor va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar. Bunday qo'llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida muhim hisoblanadi. SHu sababli ham maktab ta'limining dastlabki qadamidan boshlab, bunday o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ta'lim inklyuziv ta'lim shakllarini aniqlash va uni umumiy ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Inklyuziv ta'lim davr talabi sifatida. «Inklyuziv» va «integrasiyalashgan» atamalari ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Biroq shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolani oddiy sharoitga joylashtirish integrasiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadam. Integrasiyalashgan ta'lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Integrasiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud: A) Jismoniy integrasiya. Integrasiyaning bu shakli maxsus tarbiyaga muhtoj va maxsus tarbiyaga muhtoj bo'limgan bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan.



Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun maxsus bo‘lim yoki sinf tashkil qilish mumkin. B) Funksional integrasiya. Bu shakl maxsus tarbiyaga muhtoj va maxsus tarbiyaga muhtoj bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan. V) Ijtimoiy integrasiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u maxsus tarbiyaga muhtoj hamda maxsus tarbiyaga muhtoj bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi aloqani qo‘llab – quvvatlaydi. G) Jamiyatga integratsiya qilish kabilar. Integrasilashgan talim tizimining quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud: Umumta’lim muassasalarda kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyati bo‘lmaydi. Umumta’lim mакtab pedagogi maxsus metodikani bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirmaydi. Umumta’lim mакtablarida tiflo, surdotexnik vositalar, maxsus tibbiyot uskunalar bo‘lmaydi. Sinfda o‘quvchilar soni 25 tadan-35 tagagacha yetadi va oqibatda ularning barchasiga ko‘p vaqt ajrata olmaydi. Umumta’lim mакtablarda o‘quvchilarda maxsus malaka, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislar bo‘lmaganligi tufayli, imkoniyat topish qiyin. Umumta’lim mакtablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. Inklyuziv ta’lim tizimi integrasilashgan ta’lim tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi. Inklyuziv ta’limda, ta’lim berishning diqqat markazida bola turadi (o‘quv rejasni emas) deb bu jarayonga yondashadi. Ushbu yondashuvlar bolalar xar xil sharoitda o‘qiydi, rivojlanadi, ma’lumotni xar xil tezlikda qabul qiladi degan e’tirofga asoslanadi. Ular xar bir bolaning shu qatorda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ehtiyojlarini qondiradigan ta’lim muxitini yaratib berishga qaratilgan. Mazkur tavsiyalarning maqsadi - mакtablarni maxsus ehtiyojli bolalarnig ehtiyojlariga javob beradigan qilib moslashtiradigan jarayonni qo‘llab–quvvatlash. «Moslashtirish» deganda nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga bemalol borib kelishi, balki shu qatnashdan kandaydir foya olishi va optimal o‘quv rejasining mavjudligidir. Maktab muxiti moslashuvchan bo‘lib, bola ta’limdagi tartibga moslashishi kerak deb taxmin qilinmasdan, alohida xar bir bolaning ehtiyojlarini qondirishi kerak. Gospital pedagogika va inklyuziv ta’lim o‘rtasida bog‘liqliklar mavjud, chunki ikkala tizim



ham maxsus ehtiyojga ega bolalarni ta’lim jarayoniga jalg qilish, qobiliyatlarini shakllantirish, ularni jamiyatdan ajralib qolmasligi uchun yordam berishga qaratilgan. Ularning asosiy bog‘liqliklari: Maxsus ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarga qaratilganligi. Differensial va individual yondashuv: Har ikki tizimda ham har bir bolaning rivojlanish darajasi, qiziqishi, qobiliyati, sog‘lig‘i, psixologik holatiga qarab individual reja asosida ishlanadi. Bu yondashuv ularga o‘z imkoniyatlariga qarab rivojlanish imkonini beradi. Psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash: Ikkala tizimda ham bolalarning ruhiy holatini barqarorlashtirish, motivatsiya va ijtimoiy moslashuvga erishish muhim hisoblanadi. Shu sababli psixolog, defektolog, logoped, ijtimoiy pedagog kabi mutaxassislar faol hamda hamkorlikda ishtirok etadi. Integratsiyalashuv va ijtimoiylashuv: Gospital pedagogika bolani davolanish jarayonida jamiyatdan uzilmaslikka yordam beradi. Inklyuziv ta’lim esa ularni tengdoshlari bilan birga o‘qish orqali jamiyatga qo‘shilishga yordam beradi. Huquqiy va pedagogik asoslar birdamligi: Har ikkisi ham inson huquqlari, ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlar, diskriminatsiyaga qarshi tamoyillarga asoslanadi. Gospital pedagogika va inklyuziv ta’lim o‘rtasida o‘xshashliklar bo‘lishi bilan bir qatorda muhim farqlari ham mavjud. Bular quyidagilar:

1. Amalga oshiriladigan joy: Gospital pedagogika — asosan shifoxonalarda, tibbiy muassasalarda yoki uy sharoitida amalga oshiriladi. Inklyuziv ta’lim — umumta’lim mакtablarida yoki bog‘chalarda sog‘lom bolalar bilan birga maxsus ehtiyojli bolalar uchun tashkil etiladi.
2. Maqsadli guruh: Gospital pedagogika — davolanish jarayonida bo‘lgan bolalar (masalan, saraton, yurak kasalligi, operatsiyadan keyingi davr va h.k.). Inklyuziv ta’lim — nogironligi, rivojlanishida nuqsoni yoki boshqa maxsus ehtiyoji bo‘lgan bolalar (masalan, eshitish, ko‘rish, aqliy rivojlanishida cheklov bo‘lganlar).
3. Davomiylilik: Gospital pedagogika — vaqtinchalik (bola davolanayotgan davrda) bo‘lsa inklyuziv ta’lim esa doimiy (butun o‘quv yili yoki butun ta’lim bosqichida) faoliyat ko’rsatadi.
4. Ta’lim muhiti: Gospital pedagogika — tibbiy muhitda, sog‘lijni saqlash tizimi bilan uzviy bog‘liq. Inklyuziv ta’lim — umumiy ta’lim tizimi doirasida, barcha bolalar uchun moslashtirilgan.
5. Pedagogik yondashuv: Gospital pedagogika — pedagogik faoliyat sog‘lijni tiklash jarayoni bilan uyg‘unlashtiriladi.



Inklyuziv ta’lim — har bir bolaning imkoniyatlari, qiziqish hamda qobiliyatlarini hisobga olgan holda maktabdagi moslashtirilgan o‘qitish usullaridan foydalanadi. 6. Mutaxassislar bilan hamkorlik: Gospital pedagogika — ko‘proq shifokorlar, psixologlar va tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda faoliyat olib boriladi. Inklyuziv ta’lim — defektolog, logoped, psixolog va ijtimoiy pedagog ishtirokida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda gospital pedagogika — bu kasal bolalarning vaqtinchalik ta’limi, sog‘ligini tiklashga yo‘naltirilgan. Inklyuziv ta’lim — bu har qanday imkoniyati cheklangan bolalarning sog‘lom tengdoshlari bilan birqalikda teng ta’lim olishini ta’minlaydi. Gospital pedagogika — inklyuziv ta’limni to‘ldiruvchi, lekin alohida maqsad va sharoitlarda qo‘llaniladigan ta’lim shakli. Gospital pedagogika — bu inklyuziv ta’limning muhim bir bo‘lagi yoki shakli sifatida talqin etiladi. U sog‘lig‘i sababli mакtabga bora olmaydigan bolalarni ta’lim jarayonidan chetda qoldirmaslik orqali inklyuzivlikni amalda ta’minlaydi. Xullas bu ikkalasi bir-birini to‘ldiradi va umumiy maqsad sari — barcha bolaga teng va sifatli ta’lim berishni nazarda tutadi.

### ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013.
2. D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil
3. R.Sh. Shomaxmudova „ Maxsus va inklyuziv ta’lim xalqaro va milliy tajribalar”- o‘quv uslubiy qo‘lanma.Toshkent 2011.
4. “Alohidha yordamga muhtoj bolalarni ma’naviy va estetik rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent-2002 yil.
5. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopyediya. T., 1995
6. R. Sh. Shomaxmudova, T. V. Tolmaskaya, M. V. Saipova 2008 y.
7. R. Shomaxmudova, D. Tulaganova, A. Berdiyeva, — Jismoniy rivojlanishida muammolari bulgan bolalar bilan inklyuziv ta’limi tizimida olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar. 2007 y.



8. L. R. Muminova, R. Shomaxmudova — Imkoniyati cheklangan bolalarni individual korreksion / rivojlantirish dasturining metodik asoslari uslubiy tavsyanoma 2007у.
9. D.S.Qaxarova —Inklyuziv ta‘lim texnologiyasi Toshkent. 2014
10. Р.Шомахмудова, Д.Тулаганова, А.Бердиэва. Жисмоний ривожланишида муаммолари бўлган болалар билан инклузив ва маҳсус таълим тизимида олиб бориладиган коррекцион педагогик ишлар. Тошкент: 2007 й.